

Date: 25th January-2026

O'QUVCHILARDA O'ZINI BOSHQARISHNI SHAKLLANTIRISHGA OID PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Meyliqulov Ramazon Xudayqul o'g'li
Osiyo Xalqaro Universiteti, 2-kurs magistr

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda o'zini boshqarish kompetensiyasining zarurligi o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligi, mustaqilligi va mas'uliyati bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. O'zini boshqarish kompetensiyasi o'quvchining o'z faoliyatini ongli rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida talqin etiladi.

Maqolada J. Dewey, L. S. Vigotskiy, A. Bandura, V. V. Davidov, B. Andersen kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida o'zini boshqarishning ta'lim jarayonidagi o'rni asoslab berilgan. Kompetensiyaviy yondashuv, faol va muammoli ta'lim, loyiha va guruhli ish metodlarining o'quvchilarda mustaqillik, mas'uliyat va ichki motivatsiyani rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, refleksiya va tadqiqotga asoslangan ta'lim o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishning muhim mexanizmi sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zini boshqarish kompetensiyasi, zamonaviy ta'lim, o'quvchi faolligi, mustaqil o'rganish, kompetensiyaviy yondashuv, faol ta'lim metodlari, muammoli ta'lim, loyiha metodi, refleksiya, pedagogik mustaqillik

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va o'z o'qish faoliyatini ongli ravishda tashkil eta olish qobiliyatini talab qilmoqda. Ta'lim tizimi tobora shaxsning o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan holda qayta qurilayotgani sababli, o'zini boshqarish kompetensiyasining shakllanishi ta'limning asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda. O'zini boshqarishning zarurligi, avvalo, o'quvchi shaxsining ta'lim jarayonida passiv bilim qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishi bilan bog'liq.

Pedagog olimlardan J. Dewey ta'lim jarayoni shaxsning faolligiga tayanishi lozimligini ta'kidlagan bo'lib, o'quvchi o'rganish jarayonida mustaqil qaror qabul qila olishi, maqsad qo'ya olishi va o'z faoliyatini baholay olishi kerakligini alohida qayd etgan. Deweyning fikricha, faollik o'zini boshqarishning asosiy sharti bo'lib, o'quvchi mustaqil o'rganishga jalb qilinmasa, uning fikrlash jarayoni yuzaki bo'lib qoladi. Bu qarashlar zamonaviy ta'limning mohiyatiga to'la mos bo'lib, o'quvchining mustaqil ta'lim subyekti sifatida shakllanishida o'zini boshqarish kompetensiyasi hal qiluvchi omil sifatida ko'riladi.

L. S. Vigotskiy ta'lim jarayonida shaxsning o'z xulq-atvorini boshqarish, ichki nazoratni shakllantirish va fikrlashning o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlari yetakchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy asoslagan. Uning fikricha, o'quvchining o'z faoliyatini boshqarishi rivojlanish jarayonini tezlashtiradi, mustaqillikni kuchaytiradi va yuqori



Date: 25th January-2026

darajadagi tafakkur shakllanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o'zini boshqarish kompetensiyasi zamonaviy ta'limning mazmunida markaziy o'rin tutadi.

O'zini boshqarishning zarurligi ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning joriy etilishi bilan yanada kuchaydi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchining bilimni amalda qo'llay olishi, mustaqil izlanishi va o'quv jarayonini boshqarishi ta'limning eng muhim natijalaridan biri hisoblanadi. B. Andersen tomonidan ta'kidlanganidek, shaxsning o'z ta'lim faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholay olish qobiliyati uning ijtimoiy hayotga moslashuvi, kasbiy rivojlanishi va o'zini anglashi uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmadir.

Zamonaviy ta'limda o'zini boshqarishning zarurligi shundan iboratki, u o'quvchi shaxsini faqat bilim oluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, maqsadga yo'naltirilgan, mas'uliyatli va o'z faoliyatini ongli ravishda boshqara oladigan rivojlangan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida o'zini boshqarish kompetensiyasi rivojlansa, o'quvchida mustaqil o'qishga bo'lgan motivatsiya kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'z imkoniyatlarini baholay olish kabi hayotiy zarur ko'nikmalar shakllanadi.

O'zini boshqarishni shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri bo'lib, shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga, ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishiga va hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratadi.

O'quvchining o'quv jarayonidagi mustaqilligi, faolligi va mas'uliyati zamonaviy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari sifatida talqin etiladi. Ta'lim tizimi o'quvchini tashqi boshqaruvga tayanadigan passiv bilim oluvchidan faol, maqsadga yo'naltirilgan va o'z ta'limini mustaqil tashkil eta oladigan shaxs darajasiga olib chiqishni talab qiladi. O'zini boshqarish kompetensiyasi mazkur jarayonning markazida turadi, chunki o'quvchi o'z faoliyatini rejalashtirish, ta'limiy maqsadlarni belgilash, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'z harakatlarini nazorat qilish va natijalarni baholash jarayonlarini aynan shu kompetensiya orqali amalga oshiradi.

Pedagogika ilmda o'quvchining mustaqilligi shaxsiy rivojlanishning muhim mezoni sifatida ta'riflanadi. L. S. Vigotskiyning fikricha, o'quvchi o'rganish jarayonida mustaqil faoliyatga jalb etilganda, shaxsning ichki faolligi kuchayadi va o'zini boshqarish ko'nikmalari shakllanishi tezlashadi. V. V. Davydov esa o'quv faoliyatining ongli tashkil etilishi o'quvchining mas'uliyatini oshirishini, buning natijasida u o'zining faol subyekt sifatidagi rolini chuqur anglashi mumkinligini ta'kidlarkan, o'zini boshqarish bilan mustaqillik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratadi. Shu sababli o'zini boshqarish darajasining oshishi o'quvchining o'quv jarayonidagi faolligi va tashabbuskorligining kuchayishiga olib keladi.

O'zini boshqarish kompetensiyasining o'quvchining mas'uliyati bilan bog'liqligi ham alohida ilmiy e'tibor talab qiladi. Mas'uliyatli shaxs o'zining xatti-harakati, o'quv faoliyati va natijalarini ongli ravishda baholaydi, xatolarini tan oladi va ularni bartaraf etish yo'lida mustaqil choralar ko'ra oladi. A. Bandura tomonidan qayd etilganidek, shaxsning o'z faoliyatiga nisbatan mas'uliyatli munosabati o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini



Date: 25th January-2026

boshqarish jarayonining ichki mexanizmlariga tayangan holda shakllanadi. Ta'lim jarayonida bunday jarayonlarni qo'llab-quvvatlash o'quvchining o'z ustida ishlash ehtiyojini kuchaytiradi.

O'zini boshqarishni shakllantirish kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Kompetensiyaviy yondashuv shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarni real vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayonning muvaffaqiyati bevosita o'quvchining o'z faoliyatini boshqara olish darajasiga tayanadi. B. Andersenning ta'lim mazmunini tahlil qilishga oid fikrlarida shaxsning o'z ta'lim faoliyatini mustaqil tashkil etishi va boshqarishi zamonaviy ta'limning asosiy mezoni sifatida ko'rsatiladi. Kompetensiyaviy yondashuvda o'quvchi tayyor bilim emas, balki mustaqil faoliyat orqali o'z tajribasini shakllantiradi va shu jarayonda o'zini boshqarish ko'nikmalari asosiy vositaga aylanadi.

Kompetensiyaviy ta'lim tizimi o'quvchining mustaqil o'rganish strategiyalarini ishlab chiqishiga, o'z-o'zini baholash va tahlil qila olish qobiliyatining shakllanishiga, ichki motivatsiyaning kuchayishiga imkon yaratadi. O'quvchi o'z natijalarining bevosita o'z faoliyatiga bog'liqligini anglagan sari o'zini boshqarishga bo'lgan ehtiyoji kuchayadi. Natijada o'quv jarayoni o'qituvchi boshqaruvidan ko'ra o'quvchining ichki boshqaruviga ko'proq tayanadigan tizimga aylanadi.

Faol ta'lim yondashuvi o'quvchini bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda izlovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotga tadbiq qiluvchi shaxsga aylantirishni ko'zda tutadi. Bu yondashuvda o'quvchi ta'lim jarayonining markazida turadi va o'zining har bir o'quv harakatini ongli tarzda tashkil etadi. O'quvchining faol ishtiroki o'zini boshqarishning asosiy omili bo'lib, unda mustaqil qaror qabul qilish, rejalashtirish, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish va baholash jarayonlari shakllanadi. Ta'lim jarayoniga faol yondashuvning kirib kelishi zamonaviy pedagogika fanining o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyasiga mos keladi.

Muammoli ta'lim o'quvchini fikrlashga, izlanishga va mustaqil qaror qabul qilishga undovchi ta'lim shaklidir. Bu metodda o'qituvchi tayyor javob bermaydi, balki o'quvchini fikrlashni faollashtiruvchi muammoli vaziyatga olib keladi. Muammoni yechish jarayonida o'quvchi ijodiy fikrlaydi, vaziyatni tahlil qiladi, farazlar ishlab chiqadi, ularni sinovdan o'tkazadi va yakuniy xulosaga keladi.

Pedagog olim V. Okon muammoli vaziyatning o'quvchini faollikka undaydigan kuchli rag'batlantiruvchi omil ekanini qayd etib, aynan muammoli ta'lim o'quvchini mustaqil izlanishga majbur qilib, unda refleksiya va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishini ta'kidlagan. Muammo ustida ishlash jarayonida o'quvchi o'z faoliyatining ketma-ketligini belgilaydi, vaqtni to'g'ri taqsimlaydi, natijalarni baholaydi, aniqlangan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Bularning barchasi o'quvchida o'zini boshqarishning intellektual, irodaviy va amaliy komponentlarini faollashtiradi.

Loyiha metodida o'quvchi real hayotga yaqin vazifa ustida ishlaydi. O'quvchi maqsadni o'zi belgilaydi, reja tuzadi, vazifalarni taqsimlaydi, ma'lumot to'playdi, ularni tahlil qiladi va yakuniy natijani taqdim etadi. Bu jarayon davomida o'quvchi nafaqat bilim



Date: 25th January-2026

oladi, balki rejalashtirish, izlanish, tanqidiy tahlil, vaqtni boshqarish, hamkorlikda ishlash kabi ko'nikmalarni egallaydi.

Pedagogik adabiyotlarda loyiha faoliyatining asosiy afzalligi sifatida uning o'quvchi mustaqilligini kuchaytirishi, mas'uliyat hissini rivojlantirishi va o'quvchining ichki motivatsiyasini rag'batlantirishi ko'rsatib o'tiladi. Loyiha jarayonida o'quvchi o'z faoliyatining to'liq egasiga aylanadi. U o'z qarorlarini mustaqil qabul qiladi, ularni baholaydi, xatolarni aniqlashtiradi va tuzatadi. Bu jarayon o'zini boshqarishning barcha tarkibiy qismlarini amalda namoyon etish imkonini beradi.

Loyiha faoliyatining yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchining ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchi jamoa oldida natijalarni himoya qiladi, o'z fikrini asoslaydi, savollarga javob beradi. Bularning barchasi shaxsning o'zini boshqara olish salohiyatini mustahkamlaydi.

Guruhli ta'limda o'quvchilar birgalikda muayyan maqsad sari harakat qiladilar, bu jarayonda har bir a'zo faol ishtirok etishi, o'z rolini burch sifatida bajarishi talab etiladi. O'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shaxsning ijtimoiy tajribasini boyitadi, o'z fikrini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash, kelishuvga erishish, jamoaviy qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

L. S. Vigotskiy ta'limning ijtimoiy xarakterini ta'kidlab, bilimning faqat yakka o'rganish orqali emas, balki ijtimoiy muloqot jarayonida samarali o'zlashtirilishini ilmiy asoslagan. Guruhli ish aynan mana shu qonuniyatga tayangan holda, o'quvchini ijtimoiy faol subyektga aylantiradi. Guruhda ishlash jarayonida o'quvchi o'z vazifasini rejalashtiradi, unga amal qiladi, natijani baholaydi va zarur hollarda o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritadi. Bu jarayon o'zini boshqarishning ijtimoiy-irodaviy jihatlarini rivojlantiradi.

Guruhli ishning yana bir afzalligi shuki, u o'quvchini mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. O'quvchi jamoada o'z vazifasini bajarmasa, natija butun guruhga ta'sir qiladi. Bu holat o'quvchini o'z faoliyatini nazorat qilishga, vaqtida harakat qilishga va javobgarlikni chuqur his qilishga majbur etadi.

Tadqiqotga asoslangan ta'lim o'quvchini o'quv faoliyatining izlanishga yo'naltirilgan barcha bosqichlariga jalb etadi: savol qo'yish, faraz ilgari surish, kuzatish, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish. Bunday jarayon ilmiy tafakkurni, mustaqil fikrlashni, dalillarga tayanib qaror qabul qilishni rivojlantiradi.

Refleksiv yondashuv o'quvchining o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish, o'quv jarayonidagi xatti-harakatlarini baholash va kelgusidagi o'rganish strategiyalarini belgilashga qaratilgan pedagogik yo'nalishdir. Refleksiya shaxsning ichki fikrlash jarayonlarini boshqarish, o'z xulq-atvori natijalarini anglay olish va ularga ongli munosabat bildirish qobiliyatining rivojlanishini nazarda tutadi. O'quvchi o'z o'rganish jarayonining subyektiga aylanishi, o'z bilim faoliyatidagi har bir bosqichni ongli boshqarishga o'rganishi refleksiyaning asosiy vazifalaridan biridir.



Date: 25th January-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dewey J. Democracy and Education. New York: The Free Press, 1997.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2018.
3. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman and Company, 2012.
4. Davydov V. V. Types of Generalization in Instruction. Reston, VA: NCTM, 1990.
5. Andersen B. Self-Regulated Learning in Education. London: Routledge, 2014.
6. Zimmerman B. J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement. New York: Routledge, 2013.
7. Okon V. Introduction to General Didactics. Warsaw: PWN, 2003.
8. Bruner J. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2006.
9. Delors J. Learning: The Treasure Within. Paris: UNESCO, 1996.
10. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 2006.
11. Панжизода Х. Ситуация насилия и притеснения в семье на примере Узбекистана. Социология и право". ISSN 2219-6242 (Print) . №3. Москва. Социология и право. 2025. Т. 17. No 3. – С. – 336-344.

